



TIJORAT BANKLARI DEPOZIT OPERATSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Shamsiyev Nodir Muratovich

Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti

katta o'qituvchisi (PhD)

<https://orcid.org/0009-0002-3081-4040>

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14799306>

Annotatsiya. Ushbu tezisda bank amaliyoti holati tahlil qilingan. Banklarda maqsadlarni amalga oshirish uchun pul mablag'larini qo'yimalarga jalb qilish operatsiyalari depozit operatsiyalari deyiladi. Depozitlar faqatgina omonatchiga emas, shu bilan birga banka ham manfaatli hisoblanadi. Depozitlar omonatchilar tomonidan qo'yilgan yoki operatsiyalar jarayonida bank hisobvarag'ida ma'lum vaqitgacha saqlanadigan mablag'lar hisobidan shakllantiriladi. Xalqaro bank amaliyotida depozitlar deyilganda moliya-kredit yoki bank muassasalariga saqlash uchun berilgan qimmatli qog'ozlar yoki pul mablag'lari tushuniladi. Tijorat banklari tomonidan jalb qilingan depozitlar orqali bankning ssuda kapitali shakllanadi va bundan tijorat banklari turli shakldagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni qulay shartlar asosida kreditlash imkoniyatlarini kengaytiradilar. Depozit va kredit foizlari orasidagi farq bo'sh pul mablag'larini jalb qilish va ssuda kapitalini joylashtirish borasidagi bank marjasi bo'lib hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Bank, bank-moliya tizimi, kapitallashuv, resurs, ustav kapitali, deposit, kredit, reyting, omonat, mijoz, yuridik shaxs, jismoniy shaxs, operatsiya, mablag', omillar, sub'ekt

Tijorat banklarining iqtisodiyotdagi vaqtincha bo'sh pul mablag'larini yetarli darajada jalb etishi va ushbu mablag'larni samarali joylashtirishni boshqarish hozirgi kunda ularning muhim hamda asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Buning asosiy sababi, O'zbekistonda bozor munosabatlarining tobora chuqurlashuvi va iqtisodiyotning yanada erkinlashtirilishi natijasida tijorat banklari o'rtasida resurslarga bo'lgan talabning yanada kuchayganligidadir. Natijada, banklarning arzon va muddati jihatdan uzun mablag'larga bo'lgan ehtiyojining ortib borishi ushbu mablag'larni shakllantirish va ularni samarali boshqarish muhim masalalardan biri ekanligini ko'rsatib bermoqda. Mazkur holat mamlakat miqyosida mavjud bo'lgan vaqtincha bo'sh pul mablag'larni banklar o'rtasida taqsimlashda va moliya bozorlaridan qo'shimcha resurslarni jalb etishda banklar o'rtasidagi erkin raqobatni kuchayishiga ijobiy samara ko'rsatmoqda.



Xalqaro bank amaliyotidan hamda qisqa davrdagi bozor munosabatlari sharoitida orttirilgan bank tajribasidan ma'lumki, tijorat banklarining asosiy resurs bazasi ularning depozitli resurslari hisobidan shakllantiriladi.

Tijorat banklari tomonidan puxta ishlangan depozit siyosati orqali barqaror pul mablag'larni jalb qilish banklar resurs bazasining oshishiga, bu esa, o'z navbatida, banklarning kredit berish amaliyotida resurs yetishmasligi muammosining oldini oladi..

Hozirgi kunda tijorat banklarini barqaror resurs manbasi sifatida depozit sertifikatlarini misol qilishimiz mumkin. Tijorat banklari tomonidan chiqarilgan depozit va jamg'arma sertifikatlari 2010 yil boshiga 205,3 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023 yil boshiga tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqarilgan va joylashtirilgan depozit hamda jamg'arma sertifikatlari 1178,3 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Tijorat banklari tomonidan depozit sertifikatlarini muomalaga chiqarish ijobiy holat bo'lib, ular aniq muddatga chiqariladi va ushbu muddat davomida tijorat banklari uchun barqaror resurs sifatida xizmat qiladi. Tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqarilgan depozit sertifikatlarining mijoz uchun afzalligi shundan iboratki, mijoz tomonidan bankka qo'yilgan mablag'ni mazkur bankning istalgan filialidan sertifikatning muddati kelgandan so'ng olish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, depozit sertifikatlari chiqarish orqali jalb qilingan mablag'lar majburiy zaxiraga tortilmaydi.

Mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan so'nggi yillarda depozit sertifikatlarini muomalaga chiqarish amaliyoti rivojlanib borayotgan bo'lsada, ushbu noemissiyaviy qimmatli qog'ozning banklarning depozitlari tarkibidagi ulushi pasayish tendentsiyasini namoyon etmoqda.

Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tijorat banklari depozit sertifikatlarining umumiy ulushi 2019 yilda depozitlar tarkibida 3,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023 yilda 1,7 foizga pasaygan.

Rivojlangan davlatlarda, xususan, AQSh tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqarilayotgan depozit sertifikatlarining asosiy qismi 3 yildan ortiq muddatga chiqarilib, ushbu sertifikatlar ikkilamchi bozorda erkin muomalada bo'ladi. Shuningdek, mazkur sertifikatlar FDIC (Depozitlarni sug'urtalash Federal Korporatsiyasi) tomonidan sug'urtalanadi.

Bundan tashqari, depozit sertifikatlari bo'yicha to'lanayotgan foizlarning miqdori inflyatsiya darajasidan ancha yuqori. Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar yoki har qanday jismoniy shaxs o'z aktivlarini yuqori darajada daromad keltiruvchi sohaga yo'naltirishga intiladi.



Shu sababli, sertifikatlarni emissiya jihatidan qulay joylashtirishni ta'minlash uchun banklar quyidagilarni hisobga olishlari kerak:

- investor uchun jozibador foiz stavkasi;
- omonatchilar uchun qulay bo'lgan sertifikat qiymatlari, shu jumladan minimal nominal qiymat;
- chiqarilishning standart shartlari (bir necha turdagi nominal va qulay muddat);
- nominal va hisoblangan foizlarni to'lashning ishonchli kafolatlari;

Mamlakatimizda so'nggi yillarda bank tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida bank tizimiga aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ishonchi ortib borayotgan bo'lsada, banklar tomonidan jalb qilingan depozitlarga to'lanayotgan foizlarning darajasi inflyatsion daromadning yuqoriligi sababli o'z jozibadorligini yo'qotib qo'ymoqda.

Mamlakatimizda jami depozitlarning yuqori salmog'i davlat banklari hissasiga to'g'ri kelmoqda. O'z navbatida depozit sertifikatlari banklar uchun barqaror va qulay vosita hisoblanadi. Bank kapitali tarkibida davlat ulushi yuqori bo'lgan tijorat banklari tomonidan uzoq muddatli depozit sertifikatlari chiqarish va ularga to'lanayotgan foizlar barqarorligini ta'minlash orqali bank tizimi depozit bazasini mustahkamlashga erishiladi.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining depozit operatsiyalarini optimallashtirish bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolar, fikrimizcha, quyidagilardan iborat:

1. Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi va inflyatsiya darajasining yuqori ekanligi sababli tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalarini yuqori ekanligi.

Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi bazaviy stavka bo'lganligi sababli uning o'zgarishi tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalariga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Odatda, Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasining o'zgarishi quyidagi uch omilga bog'liq:

- inflyatsiya darajasiga;
- yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atiga;
- mamlakat bank tizimining barqarorligiga.

Odatda, inflyatsiya darajasining yuqori bo'lishi Markaziy bankka qayta moliyalash stavkasini pasaytirish imkonini bermaydi. Ammo, yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atini sekinlashishi Markaziy bankni qayta moliyalash stavkasini pasaytirishga majbur qiladi.



Mamlakat banklarida balanslashmagan likvidlilik muammosining paydo bo'lishi, odatda, Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasini pasaytirilishiga olib keladi. Chunki, past qayta moliyalash stavkasida kreditlar berilishi tijorat banklaridagi likvidlilik muammosini hal qilishda muhim o'rin tutadi.

Shuningdek, inflyatsiya darajasining oshishi ham tijorat banklarini kreditlarning foiz stavkasini oshirishga majbur qiladi. Chunki, inflyatsiya darajasining oshishi tijorat banklarining kreditlardan olinadigan foizli daromadlarning real qiymatini pasayishiga sabab bo'ladi.

Tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalarini past va barqaror darajada saqlab turish O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning zamonaviy bosqichida muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu esa, fikrimizcha, quyidagi sabaablar bilan izohlanadi:


A. 2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Taraqqiyot strategiyasida istiqbolli investitsiya loyihalarini tijorat banklari tomonidan kreditlashni kengaytirish makroiqtisodiy o'sish sur'atlarining barqarorligini ta'minlashning zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida, tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalarini past va barqaror darajasini ta'minlash zaruriyatini yuzaga keltiradi. Chunki, foiz stavkalari kreditning bahosi bo'lganligi sababli investitsiya loyihalarini moliyalashtirish maqsadiga beriladigan kreditlarning hajmini oshirish bevosita kreditlarning bahosiga bog'liq bo'lib qoladi.

B. Aholining tadbirkorlik faoliyatini kreditlash hajmini oshirishning zarurligi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 martdagi PQ-2844-sonli «Tadbirkorlik sub'ektlari va keng aholi qatlamiga mikrokreditlar ajratish tizimini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq, tadbirkorlik sub'ektlari va barcha aholi qatlamining imtiyozli mikrokreditlardan keng foydalanishini ta'minlash, shuningdek, yakka tartibdagi mehnat faoliyatini rag'batlantirish orqali aholi bandligini yanada oshirish vazifasi qo'yilgan¹.

V. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini pul mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasining past ekanligi.

Iqtisodiyotni pul mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasining past bo'lishi to'lovsizlik muammosini hal qilish imkonini bermaydi. Buning ustiga, banklar tomonidan berilgan kreditlarni qaytmasligi to'lovsizlik muammosini yanada chuqurlashishiga xizmat qiladi.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining pul mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasi foizda²

1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2014-2018 yillarda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining pul mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasi past bo'lgan. Buning ustiga, 2016-2018 yillarda ushbu ko'rsatkichning pasayish tendentsiyasi kuzatilgan. Bu esa, iqtisodiyotdagi to'lovsizlik muammosini hal etish nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

Xalqaro amaliyotda mamlakat iqtisodiyotining pul mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasini oshirishning ikki imkoniyati mavjud. Birinchi imkoniyat tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlarning hajmini oshirish bo'lsa, ikkinchi imkoniyat bo'lib, davlat byudjeti xarajatlarini oshirish hisoblanadi. Hozirgi kunda esa, respublikamizda iqtisodiyotni pul mablag'lari bilan ta'minlashning har ikkala imkoniyatidan foydalanish murakkablashdi. Buning sababi shundaki, birinchidan, tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalari yuqori, ikkinchidan, davlat byudjeti defitsit bilan bajarilmoqda. Bunday sharoitda tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalarini past va barqaror darajasini ta'minlash muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

2. Milliy valyutaning qadrsizlanish sur'atining yuqori ekanligi sababli xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning kredit to'loviga layoqatliligini pasayayotganligi.

Muammoning mohiyati shundaki, milliy valyutaning qadrsizlanish sur'atining yuqori ekanligi importning qimmatlashishiga va inflyatsiyaning kuchayishiga olib keldi. Buning natijasida korxonalarning xorijiy valyutalarda



olgan kreditlarini to'lash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlari va mahsulotlar tannarxining oshib ketishi yuz berdi. Natijada, ularning to'lovga qobillik darajasi pasaydi.

Valyuta siyosatini liberallashtirilishi munosabati bilan 2017 yilning 5 sentyabridan boshlab so'mning AQSh dollariga nisbatan nominal almashuv kursi qariyb ikki barobarga oshdi, ya'ni so'mning AQSh dollariga nisbatan qadrsizlanish sur'ati qariyb 200 foizni tashkil etdi. Bu esa, yuqori sur'atdagi qadrsizlanish sur'ati bo'lib, importning keskin qimmatlashishiga va, natijada, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning investitsiyalar jalb etish imkoniyatini pasayishiga olib keldi. Pirovard natijada, mamlakatda investitsiya me'yoring pasayib ketish xavfi yuzaga keldi. Investitsiya me'yoring pasayishi esa, tabiiyki, yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atini pasayishiga olib keladi.

2018 yilda ham O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki milliy valyuta kursining barqarorligini ta'minlay olmadi. Hamon milliy valyutaning qadrsizlanish sur'ati yuqori ekanligicha qolmoqda. Milliy valyutaning qadrsizlanish sur'atining yuqori ekanligi banklar tomonidan xorijiy valyutalarda berilgan kreditlarning qaytmaslik ehtimolini oshiradi. Buning sababi shundaki, milliy valyutaning qadrsizlanishi natijasida xorijiy valyutadagi kreditlarni qaytarish bilan bog'liq bo'lgan so'mdagi xarajatlar miqdori ortadi.

3. Tijorat banklari tomonidan kreditlar berishning me'yoriy-huquqiy asoslarining takomillashmaganligi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2005 yil 20 avgustdagi 1509-sonli "Tijorat banklari tomonidan yirik investitsiya loyihalarini sinditsiyalashtirilgan kreditlashni amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi yo'riqnomasida bank sindikatida ishtirok etuvchi tijorat banklari va kredit oluvchi o'rtasida kredit shartnomasi tuzilgandan so'ng, har bir ishtirokchi-bank sinditsiyalashtirilgan kreditlash to'g'risidagi kelishuvda qayd etilgan shartlar asosida kredit oluvchiga o'z bankida belgilangan tartibda alohida ssuda hisobvarag'i ochadi³. Bu esa, xalqaro tajribaga zid hisoblanadi. Chunki, xalqaro bank amaliyotida sinditsiyali kredit bo'yicha ssuda hisobraqami faqat Yetakchi bankda ochiladi, kredit bo'yicha muddatli majburiyat ham Yetakchi bankda hisobga olinadi.

«Tijorat banklari tomonidan yirik investitsiya loyihalarini sinditsiyalashtirilgan kreditlashni amalga oshirish tartibi to'g'risida»gi yo'riqnomaga muvofiq, bank sindikatida ishtirok etuvchi tijorat banklari tomonidan kreditlashni amalga oshirish kredit shartnomasida belgilangan



maqsadlar va muddatlarda har bir ishtirokchi bank uchun belgilangan kalendar muddatida qarz oluvchining to'lov topshiriqnomalari asosida tovar-moddiy boyliklar, bajarilgan ishlar va xizmatlar uchun ssuda hisobvarag'idan naqd pulsiz shaklda to'lash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Sinditsiyali kredit summasi har bir ishtirokchi bankning buxgalteriya balansida, uning sinditsiyali kreditdagi ulushi miqdoriga teng summada aks ettiriladi. Bundan tashqari, ushbu Yo'riqnomada berilgan sinditsiyali kredit bo'yicha monitoring uchun qaysi bankning ma'sulligi aniq ko'rsatilmagan.

«Tijorat banklari tomonidan yirik investitsiya loyihalarini sinditsiyalashtirilgan kreditlashni amalga oshirish tartibi to'g'risida»gi yo'riqnomaning 29-bandiga muvofiq, qarz oluvchining kreditni qaytarish qobiliyatidagi o'zgarishlar, berilgan kreditdan maqsadli foydalanilishi, garov ob'ektining holati va kafilning moliyaviy holatidagi o'zgarishlar bo'yicha monitoring Yetakchi bank tomonidan amalga oshiriladi. Biroq, mazkur monitoring Bosh bitim talablaridan kelib chiqqan holda, har bir ishtirokchi bank tomonidan mustaqil amalga oshirilishi mumkin.

Ssuda hisobarqamini bank sindikatida ishtirok etuvchi barcha banklarda ochilishi Yetakchi bankka sinditsiyali kreditlash jarayonini nazorat qilish imkonini bermaydi. Chunki, bank siri degan narsa bor. Shu sababli, bir bank ikkinchi bankning balans ma'lumotlarini ko'ra olmaydi.

E'tirof etish joizki, respublikamizda to'lovlarning maqsadi ketma-ketligi qo'llanilayotganligi, davlat soliq inspeksiylariga solishtirish dalolatnomasisiz inkasso qo'yish huquqining berilganligi tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarni qaytarishga to'sqinlik qilmoqda.

Xulosa va takliflar: Yuqorida amalga oshirilgan tahlillar natijasida mamlakatimiz bank amaliyotida tijorat banklarining depozit bazasini mustahkamlash bilan bog'liq bir qator muammolar aniqlandi.

1. Tijorat banklari, ayniqsa kapitali tarkibida davlat ulushi yuqori bo'lgan banklar uzoq muddatli depozitlarni jalb qilishga jiddiy e'tibor qaratishmaydi. Xususan moliyaviy resurslarni jalb etishning bozor tamoyillari va mezxanimzlari keng joriy etilmagan, natijada ular o'rtasida raqobat muhiti etarli darajada shakllanmagan va depozit bazasining mustahkamligi bo'yicha qator muammolar vujudga kelishiga sabab bo'lgan.

2. Fikrimizcha, tijorat banklari depozit siyosati - bank tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning bo'sh pul mablag'lrini jalb qilish hamda keyinchalik mazkur mablag'larni o'zaro manfaatli asosda joylashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'zida mujassam etgan bank siyosatidir.



3. Tijorat banklari tomonidan puxta ishlangan depozit siyosati orqali barqaror pul mablag'larni jalb qilish banklar resurs bazasining oshishiga, bu esa, o'z navbatida, banklarning kredit berish amaliyotida resurs yetishmasligi muammosining oldini olishga xizmat qiladi.

4. Tijorat banklari depozit sertifikatlarini amaliyotga chiqarish orqali depozitlar jalb qilishi banklar uchun kam xarajat hisoblanadi. Ya'ni, bunda Markaziy bank tomonidan majburiy zaxiralarga mablag' talab etilmaydi.

5. Tijorat banklari resurlari tarkibida depozitlar, ayniqsa uzoq muddatli depozitlar ulushining pas tligi beqaror mablag'larning ulushini yuqori bo'lishiga sabab bo'lib, jalb qilingan mablag'larning asosiy qismi qimmat manbalardan, xususan banklararo kredit va lizinglar hisobidan jalb qilingan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Жуков, Е. Ф. Банковское дело : учебник для бакалавров / Е. Ф. Жуков. — Москва : Издательство Юрайт, 2012. — 591 с.
2. Агарков М.М. Основы банковского права. Авторский сборник. 2005. 336 с.
3. Балабанов И.Т. Основы финансового менеджмента: учеб. пособие / И.Т. Балабанов. - 3-е изд., перераб. и доп. - К.: Эльга, Ника-Центр, 2005. - 656 с.
4. Abdullaeva Sh.Z. Bank ishi. Darslik. -T.: TMI, Iqtisod-Moliya, 2017 yil, 732 b.
5. Omonov A.A. Tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish masalalari. Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiyaavtoreferati, -T.: BMA, 2008. 11 b.
6. Shuxrat, Jumaev. "O'zbekiston Respublikasi byudjet daromadlarida yirik soliq to'lovchilarning roli va ahamiyati." Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting 4.11 (2024): 32-38.
7. Sh. Jumaev. (2024). On improving the methodology of tax administration of large taxpayers in the Republic of Uzbekistan. Gospodarka i innowacje. Economy and Innovation. Volume: 48 | 2024. 330-336.
8. Jumaev Shuhrat. (2024). On The Further Development Of Service To Taxpayers In The Republic Of Uzbekistan. Procedia on Economic Scientific Research, 10(1), 147-151.
9. Жумаев Ш. Ўзбекистон республикасида солиқ маъмурчилиги ва солиқ тизими стратегиясини такомиллаштириш масалалари // Экономика и социум. 2024. №4-1 (119).



10. Жумаев, Ш. (2024). Ўзбекистон Республикасида солиқ маъмурчилигини такомиллаштириш. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 2(4), 368–374. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss4-pp368-374>
11. Жумаев, Ш. (2023). Йирик солиқ тўловчилар солиқ маъмурчилигини такомиллаштиришнинг ўзига хос хусусиятлари. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 1(1), 131–136. Retrieved from <https://e-itt.uz/index.php/eitt/article/view/20>
12. Jumaev Shuxrat. (2023). Yirik soliq to'lovchilarning mohiyati, guruhlanishi va aniqlash mezonlari . *Journal of New Century Innovations*, 28(1), 36–44. Retrieved from <https://newjournal.org/new/article/view/5934>
13. Жумаев Ш. Йирик солиқ тўловчиларнинг солиқ тушумлари прогнозларини такомиллаштириш масалалари // *Economics and Innovative Technologies*. – 2022. – Т. 10. – №. 6. – С. 335-341.
14. Shuxrat, Jumaev. "O'zbekiston soliq tizimida yirik soliq to'lovchilarni soliqqa tortish ma'murchiligining shakllanishi." *World scientific research journal* 15.1 (2023): 14-23.

